YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNI UZLUKSIZ TIZIMINI TASHKIL ETISH

Kurbanova G.B., DPI dotsenti
gullolakurbanova077@gmail.com
Istamkulova F.X.,
Guliston sh. 16-maktab o‘qtuvchisi

Аннотация: ushbu tezisda oliy o‘quv yurtlarida iqtidorli talabalarni aniqlash, tanlash va malakali kadrlar tayyorlash uchun bajariladigan ishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtidorli, ijodiy, malakali, kadrlar, tizim, ilm-fan, innovatsion, integratsiya, kompazitsiya, kommunikativ, funktsiya**,** biznes, menejment.

Аннотация: в данном тезисах рассматриваются вопросы организации и реализации системы выполняемых работ в высших учебных заведениях по выявлению, отбору одаренных студентов и подготовке квалифицированных кадров.

Ключевые слова: талантливый, творческий, квалифицированный, кадровый, системный, научный, инновационный, интеграционный, композиционный, коммуникативный, функциональный, деловой, управленческий.

Annotation: in this article, the issues of identification, selection and implementation of the system of work to be carried out for the training of qualified personnel of senior students in higher educational institutions are covered.

Keywords: management, creative, skilled, personnel, system, science, innovation, integration, composition, communicative, function, business, management.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish uchun uning turli yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lish zarur. Zamonaviy kompyuterlarning imkoniyatlari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanmay ilm-fan soxasida yuksak marralarga erishib bo‘lmay qoldi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni ilm-fan sohalariga keng qo‘llash malakasiga ega bo‘lish uchun esa xorijiy tillarni mukammal bilish talab qilinmoqda.

Ilm-fanning erishgan yutuqlarini chuqur o‘rganib, ularni yanada rivojlantirishga hissa qo‘sha olishi uchun, bu sohaga kirib keluvchi yoshlar yuksak qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo‘lishi, yuqori malakali ustozlar bilan hamkorlikda ilmiy yo‘nalishni maqsadli tanlashi, faoliyatini zamonaviy metodologiya, tizim, texnologiya va dasturlar asosida yuritishi zarur.

Respublikamiz ta’lim tizimining yoshlarni ilm-fan sohasiga tanlov asosida jalb etish, ularni istak, imkoniyat va qobiliyatlarini maqsadli yo‘naltirish, ilmiy faoliyatni kompleks dasturlar asosida tashkil etish tajribasi va erishilayotgan natijalarning salmog’i ortib bormoqda. OTMlarda iqtidorli yoshlar bilan ish olib borish dastur va nizomlari ishlab chiqilgan, tashkil etilgan iqtidorli yoshlar akademiyalari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlagan umumiy nizom va dasturlar asosida faoliyat yuritishmoqda. Natijada ilm-fan, madaniyat, sport, zamonaviy texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishayotgan yoshlarning soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Bu boradagi ishlarning sifat va samarasini yanada oshirish metod, tizim va texnologiyalarini yaratish ustida OTMlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotlarning asosiy maqsadlari jumlasiga iqtidorli talabalarni bakalavriyat yo‘nalishida o‘qishi davomida ilmiy faoliyat bilan uzluksiz va samarali shug’ullanib tasdiqlangan ilmiy ish mavzusi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishish bilan bir qatorda kelajakda mustaqil ilmiy faoliyat yuritish malakasini egallashini taminlaydigan tadbirlar tizimi va texnologiyasini yaratish kiritildi. Tahlillar tadqiqotning maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish tashkiliy choralari va metodlari-ni takomillashtirish ustida izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatdi.

1. Yoshlarda ilm-fan sohasida yuksak natijalarga erishish orzu, istak, havas va maqsadlarni shakllantirish, bu sohaga ularning qobiliyat va imkoniyatlarini baholab jalb etish hamda maqsadli yo‘naltirish dastur va metodlarini qo‘llashning samarali tizimini belgilash.

Ilm-fan sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan iqtidorli talaba bu sohaning istalgan yo‘nalishiga birinchi qadamni qo‘yishdan oldin uning qay darajada rivojlanib borayotgani, echimini kutayotgan dolzarb muammolari, kelajakda yuksak marralarga

erishishi uchun bu sohaning ko‘p qirralarini mukammal egallashi zarurligi haqida bir oz bo‘lsada tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lishini ta’minlash katta ahamiyat kasb etadi.

2. Yoshlarni ilm-fanning insoniyat uchun katta ahamiyat kasb etuvchi ustivor yo‘nalishlarida mehnat qilib yuksak natijalarga erishishini ta’minlovchi ilmiy faoliyat metod va texnologiyalarini joriy etish.

3. Olim va mutaxassislarni yoshlarni ilm-fanning yuksak cho‘qqilari sari etaklashning zamonaviy metod va texnologiyalarini mukammal egalashi va amaliyotga joriy etishini ta’minlovchi chora-tadbirlarni takomillashtirish.

4. Yoshlarni tarbiyalash va ilm-fan soxasida yuksak marralarga olib kelishi tarixdan ma’lum bo‘lgan ustoz-shogird metodini samarali qo‘llash va bunday vazifani amalga oshirish malakasini mukammal egallagan iqtidorli yosh olimlarni tayyorlashning zamonaviy tizim va metodlarini joriy etish.

5. Yoshlarning ilm-fan soxasida erishgan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, Xalqaro grantlar va innovatsion loyihalarni bajarishda faol ishtirok etish hamda bozor iqtisodiyoti sharoiti talablari asosida samarali faoliyat yuritish malakasini shakllantirish metod va texnologiyalarini takomillashtirib joriy etish va b.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularni iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-shvroitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg’ayib kelayoyotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va inteletual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohatlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan rag’batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida vatanimiz dovrug’ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodlarni tarbiyalashimiz zarur. Buning uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash, ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan ta’minlab borish, ilg’or tajribalarni ommalashtirish va ular asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiya va qo‘llanmalar ishlab chiqish. Yoshlar o‘rtasida mahalliy va xalqaro shu jumladan, nodavlat fan olimpiadalarni tashkil etish ularning xalqaro olimpiadalarda ishtirokini ta’minlash. Yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda olimpiadalar uchun doimiy yangi nazorat materiallarini ishlab chiqish, xalqaro olimpiadalari ishtirokchilarini yuqori malakali mutaxassislar. Shu jumladan, olimlar, professor-o‘qituvchilar, xorijlik mutaxassislarni jalb qilgan holda tayyorlash.

Respublika Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion korparativ hamkorlik integratsiyasini amalga oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda ta’lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etishyu raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko‘rishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda oliy maktabning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya

ustuvorliklari bilan belgilanadi va mazkur strategiya OTM sifatini oshirish hamda uni imkoniyatini kengaytirishga yo‘naltirilmoqda.

Hozirgi kunda OTM va ish beruvchilar orasidagi hamkorlikda turli muammolar mavjud. OTM o‘z bitiruvchilarini bilimdon deb hisoblasalarda, ular ish beruvchi talablariga aksariyat holatlarida etarli darajada javob bermayaptilar. Ko‘pgina bitiruvchilar boshqa mutaxassislik bo‘yicha ishlashga yoki qayta tayyorlov kurslarida o‘qishlariga to‘g’ri kelyapti. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, OTM va potentsial ish beruvchi o‘rtasidagi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

OTM, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi – OTM, fan va ishlab chiqarishdagi yutuqlar va salohiyatlardan birgalikda foydalanish. Avvalo tayyorlash muhiti, malakani oshirish va qayta tayyorlash hamda birgalikdagi ilmiy izlanishlar olib borishda o‘z ifodasini topadi. Amaliyotda integratsiya deganda, bir maqsadda birlashgan bir necha subektlarni birgalikda ish olib borishi tushiniladi. Integratsiya turli soha va darajalarni o‘z ichiga olgan holda o‘zida kompazitsion va kommunikatsion funktsiyalarni namoyon etadi.

Kompazitsion funktsiya – integratsiyani tarkibi va strukturasi, birlashgan subektlarni norasmiy va normativ chegaralarni va ularni mutaxassisliklarini birlashtiradi.

Kommunikativ funktsiya - subektlar aro koperatsiyalar shakli va tarkibini, aloqa va o‘zaro birlashmalarini, ularning printsip va mexanizmlarini yangi sharoitlarga moslashuvni ifodalaydi.

Bugungi rivojlanish davrida jahonda “uchlik speral” ilmiy ishlab chiqarish interatsiyasi modeli keng tarqalgan bo‘lib (OTM ishlab chiqarish korxonasi muassasalari – fanlar akademiyasi institutlari) fanlar akademiyasi – oliy ta’lim – ishlab chiqarish korxonalari.

OTM va korxona hamkorligi:

1. Korxonani qiziqishi (malakali kadrlarni doimiy ishga olish, amaliy tayyorlash maqsadida talabalarni vaqtinchalik ishga olish, tadqiqot va ishlab chiqarishga talabalarni jalb qilish, ilmiy ishlab chiqarish va maslahatlarga professor-o‘qituvchilarni jalb qilish, malakali mutaxassislar tayyorlashda ish beruvchi so‘rnini kuchaytirish):

2. OTM (kafedra) qiziqishi (bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qatnashish, aniq kurs va diplom ishlarini korxona muammolari bilan bog’lash, mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchi monitoringini olib borish, talabalarni amaliyot bazasi bilan ta’minlash, tadqiqot va ishlab chiqarishda buyurtmalar olish, korxona ishchilarini qayta tayyorlashga qabul qilish)

3. Talabaning qiziqishi (chuqur bilimga ega bo‘lish, aniq mutaxassisilik bo‘yicha malakaga ega bo‘lish, aniq yo‘nalishda ilmiy ish olib borish, ma’lum ko‘rinishdagi rag’batlanish, ish bilan ta’minlanish)

Yuqorida keltirilgan tizimdan quyidagilar talabaning malakasiga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi:

1. Umum OTMlararo strukturalar ta’siri
2. Mutaxassislik kafedraning ta’siri, jumladan:

Past kurs talabalarini mutaxassislikka jalb qilish tizimi;

Etakchi kurs talabalarini tayyorlash tizimi;

O‘qituvchilar ta’siri;

Maxsus ta’lim texnologiyalari asosida talabalarni ijtimoiy qo‘llash tizimi.

3. Biznes va menejment vakillarining ta’siri
4. Ota-onalarning ta’siri
5. O‘qituvchilarning ta’siri
6. OTMning ichki reytinggi

Hozirgi rivojlanish vaqtida malakali talaba o‘z ustida ishlashi shaxsini o‘stirishi lozim bo‘ladi. Chunki hozirgi kunda ishga joylashishdagi talablar juda yuqori. Malakali talaba o‘qishni bitirgandan so‘ng mutaxassisligi bo‘yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo‘lishi kerak va kelajakda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha etuk mutaxassis, xar tomonlama raqobatbardosh bo‘lishi, ham bilim jihatdan, ham shaxs sifatida kompetentli bo‘lib etishishi kerak.

OTMda korxona muammolarini o‘rganish, ushbu muammolar asosida malakaviy bitiruv ishlariga ilmiy mavzular berish kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi yaratilgan va 2019 yil 8 oktyabr PF -58G’47 sonli Prezident farmoni bilan tasdiqlangan. Ushbu farmonda quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

Ta’limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

Talaba yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilga kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotgan tadbiq etish.

Oliy ta’lim ilmiy izlanuvchi talabalarining yuqori impakt – faktorga ega, nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga ixtiboslik ko‘rsatgichlarini oshishi shuningdek respublika ilmiy jurnallarining xalqaro ilmiy texnik bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash. Shu bilan birgalikda ushbu farmon bilan oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi va 2019 yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ham tasdiqlangan. Ushbu yo‘l xaritasi orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan.

Konseptsiyada quyidagi vazifalar bajarish ko‘zda tutilgan:

Iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmini yaratish; Oliy ta’lim muassasalari ilmiy faoliyati xududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etish, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyatini yo‘lga qo‘yish; Innovatsion faoliyat tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mustaxkam integratsiyasini ta’minlash; Ilmiy tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari mavjud muammolar echimiga qaratilishini ta’minlash; Bundan tashqari ushbu konseptsiyada oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlaridan, quyidagi vazifalarni bajarish zarurligi belgilab berilgan:

1. Oliy ma’lumotlilar tayyorlash sifatini oshirish.Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish.Ilmiy tadqiqot ishlarini natijadorligi oshirish.Yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fani innovatsion infratuzilmasini shakllantirish.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchanligini oshirish

2. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyutmachilarini faol jalb etish

Yuqorida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish Konseptsiyaning bajarilish natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.- “O‘zbekiston”-2017y 592-bet
2. Sh.M.Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020y. 24-yanvar. T.-“Tasvir” nashriyoti 2020y 72-bet.
3. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demakratik O‘Zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.-“O‘zbekiston” NMIU, 2017y 56-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida. Toshkent sh 2019 y 6 may.

TA’LIM FAOLIYATIDA TEATR PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

Po‘latova O.,
GDPI Pedagogika yo‘nalishi magistranti
Gmail:obida.pulatova1993@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Samatova D.**

Anotatsiya: ushbu tezisda teatr pedagogikasining mazmuni, uning asosiy tamoyillari va ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Teatr pedagogikasi – bu teatr san’ati va ta’lim jarayonining uyg‘unlashuvi orqali shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yo‘nalishdir. U o‘quvchilar va talabalarni faollikka undash, ularning emotsional-intellektual salohiyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so`zlari: teatr pedagogikasi, ta’lim jarayoni, dramatik usullar, o‘yin texnologiyalari, pedagogik san’at, ijodiy rivojlanish, emotsional ta’lim, aktyorlik elementi, pedagogik innovatsiya.

Аннотация: в данном тезисах рассматривается понятие театральной педагогики, её основные принципы и значение в образовательной системе. Театральная педагогика — это педагогический подход, интегрирующий искусство театра в учебный процесс с целью всестороннего развития личности. Она служит мощным инструментом для мотивации учащихся, развития их эмоционального и интеллектуального потенциала, а также формирования креативного мышления и культуры общения.

Ключевые слова: театральная педагогика, образовательный процесс, драматические методы, игровые технологии, педагогическое искусство, творческое развитие, эмоциональное воспитание, актёрские элементы, педагогические инновации.

Abstract: this article explores the concept of theatre pedagogy, its fundamental principles, and its significance within the education system. Theatre pedagogy is a pedagogical approach that integrates the art of theatre with educational processes to support the comprehensive development of an individual. It serves as a powerful tool for motivating students, enhancing their emotional and intellectual potential, and fostering creative thinking and communication culture.

Keywords: theatre pedagogy, educational process, dramatic methods, game-based technologies, pedagogical art, creative development, emotional education, acting elements, pedagogical innovation.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini takomillashtirish, yosh avlodda estetik dunyoqarashni shakllantirish, kreativ fikrlash, hissiy idrok va ijodiy salohiyatni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda teatr pedagogikasi g‘oyalaridan foydalanish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin. Teatr san’ati va pedagogika o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik, bir-birini to‘ldiruvchi jihatlar o‘quvchilar bilan ishlashda yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: *“Har bir bolaga yondashuv individual bo‘lishi kerak. Ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki bolaning shaxsiyati, iste’dodi, his-tuyg‘ulari bilan ishlash jarayoni bo‘lishi kerak”*. [1].

Ushbu fikr teatr pedagogikasi mohiyati bilan bevosita uzviy bog‘liq bo‘lib, uning amaliyotda qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Teatr pedagogikasi – bu ta’lim jarayoniga teatr san’ati elementlarini tatbiq etish orqali shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan ijodiy va ta’sirchan pedagogik yondashuvdir. Unda o‘qituvchining roli aktyor, rejissyor, sahnalashtiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar esa passiv tinglovchidan faol ijodkor subyektga aylanishadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – teatr pedagogikasi tushunchasini ochib berish, uning asosiy g‘oyalari va ta’lim jarayonida qo‘llanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Agar teatr pedagogikasi g‘oyalari ta’lim faoliyatiga samarali integratsiya qilinsa, o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishi, emotsional ishtiroki va ijodiy fikrlashi ortadi, shuningdek, ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim faoliyatida teatr pedagogikasidan foydalanishda quyidagi tamoyillar asosiy o‘rin tutadi:

Ijodiy faoliyat tamoyili. Bu tamoyil o‘quvchini dars jarayonining passiv ishtirokchisidan faol ijodiy subyektga aylantirishni ko‘zda tutadi. Teatr elementlari orqali bola o‘zini erkin ifoda etadi, fikrini obrazli yetkazishga intiladi. Bu haqda pedagog olim L.S.Vygotskiy shunday deydi: *“Bolalar dramasi, teatr va rolda o‘ynash – bu bola tafakkurining ijodiy qirralarini shakllantiradi”*. [2]

Masalan, o‘quvchilarda so‘z boyligini oshirish, obrazli ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilarga bitta oddiy so‘z beradi (masalan, “quvonch”, “yolg‘izlik”, “bahor”) va shu so‘z asosida kichik dramatik sahna, she’r, hikoya yoki pantomima tayyorlashni topshiradi.

O‘quvchilar mustaqil ijod qiladi va o‘z ishlarini namoyish etadi. Yakunda ular o‘z ishlarini qanday yaratilgani, qanday hislar bilan to‘ldirilgani haqida suhbatlashadi.

Emotsional-ta’sirchanlik tamoyili. Teatr vositasida ta’limda emotsional holatlarni boshqarish, hissiy tarbiya berish muhim o‘rin tutadi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z kechinmalarini anglaydi, boshqalarning tuyg‘ulariga hamdardlik bildiradi. Psixolog M. Bakhtinning ta’kidlashicha: *“Estetik va emotsional idrok bola shaxsiyatining shakllanishida kuchli vositadir”*. [3]

Masalan, o‘quvchilarning hissiy idrok va empatiya qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o‘qituvchi his-tuyg‘ulardan birini aytadi (masalan: “g‘azab”, “hayrat”, “xursandchilik”, “qo‘rquv”). O‘quvchilar bu tuyg‘uni yuz ifodasi, tana harakati va

ovoz orqali ifodalaydi.Boshqa o‘quvchilar bu holatni qanday tushunganini aytib beradi. Bu orqali tuyg‘ularni anglash va ifodalash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Sahnalashtirish va rolga kirish tamoyili. O‘quvchi o‘zlashtirayotgan bilimlarni obrazlar orqali amalda ko‘rsatadi, bu esa bilimni chuqur va mustahkam egallashiga xizmat qiladi. Aktyorlik faoliyati orqali shaxsiy ishtirokni kuchaytirish bu tamoyilning asosiy mohiyatidir.

O‘qituvchi esa bu jarayonda rejissyor rolini bajaradi. Masalan, o‘quvchilar bilimlarini amaliyot orqali mustahkamlash maqsadida tarix darsida – tarixiy voqea yoki shaxs haqida o‘quvchilar rollarga bo‘linib, sahna ko‘rinish tayyorlashadi (masalan: Sohibqiron Amir Temur bilan suhbat, tarixiy sud jarayoni, hokimlik yig‘ilishi).Bu usul orqali tarixiy shaxslar faoliyatini chuqur tushunishga erishiladi. [4]

Kommunikativlik tamoyili. Teatr dars jarayonida o‘zaro muloqotni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘rtasida erkin fikr almashinuvi, jamoada ishlash, o‘zini to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu haqda N.V. Rozov: *“Teatr – bu nutqiy madaniyat, ijtimoiy muomala maktabidir”* – deb ta’kidlaydi. Masalan, o‘quvchilarda jtimoiy muloqot va ishoraviy ifoda ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarga topshiriq beriladi – biror voqeani (masalan: nonvoyxona, maktab kutubxonasi, ko‘cha holati) faqat imo-ishora va harakat bilan sahnalashtirish. Qolgan o‘quvchilar nima bo‘layotganini taxmin qilishga harakat qiladi. So‘ngra o‘zaro fikr almashiladi. [5]

Hayotiylik va real voqelik bilan uyg‘unlik tamoyili. Teatr o‘quvchini real hayotdagi vaziyatlar asosida o‘ylashga, o‘z harakatlarini baholashga o‘rgatadi. Har bir rolda hayotiy tajriba mujassam bo‘lib, bu bola dunyoqarashining kengayishiga xizmat qiladi. [6]

Misol uchun O‘quvchilarda turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi hayotiy vaziyatlardan birini tanlashni taklif qiladi:

1) Do‘sti bilan kelishmovchilik;

2) Uyda ota-onasi bilan nizoli holat;

3) Yangi muhitda o‘zini tutish.Har bir guruh shu holatni kichik sahnachaga aylantirib, rolga kiradi va harakat qiladi.

Mashg‘ulotdan so‘ng umumiy muhokama qilinadi: kim qanday harakat qildi, to‘g‘rimi, yaxshilash mumkinmi? Teatr pedagogikasining asosiy yutug‘i – o‘quvchini dars jarayonining passiv ishtirokchisidan faol ijodiy subyektga aylantirishidadir. Bu esa quyidagi teatr vositalari orqali amalga oshiriladi:

Rol o‘ynash (dramatizatsiya): O‘quvchilar biror hikoya yoki tarixiy voqeani sahnalashtirish orqali uni chuqurroq anglab yetadi. Bu usul, ayniqsa, ona tili, adabiyot, tarix fanlarida juda samarali hisoblanadi.

Imo-ishora va tana harakati orqali o‘qitish: Pantomima yoki jonsiz ifoda elementlari orqali o‘quvchilarda noverbal muloqot, tananing ifoda vositasi sifatidagi imkoniyatlari kengayadi.

Obraz yaratish texnikalari: O‘quvchi biror obrazni yaratish jarayonida nafaqat voqeani tushunadi, balki uni o‘z hayoti bilan bog‘lab ko‘ra oladi. **Improvizatsion o‘yinlar:** Bu usul tafakkurni ochadi, ijodkorlikni kuchaytiradi va muammoli vaziyatlarda tez va moslashuvchan fikrlashga o‘rgatadi.

Sahna va makon muhitining yaratish: Darsni teatr makoni tarzida tashkil qilish – dekoratsiya, yorug‘lik, fon musiqasi yordamida o‘quvchilarni mavzuga to‘liq sho‘ng‘itish imkonini beradi. "Teatr vositalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘quvchilar tafakkurining yangicha o‘sish bosqichini yuzaga chiqaradi. Bu esa pedagogikaning yangi bosqich – madaniyatlararo, emotsional va obrazli ta’limga o‘tishini anglatadi" (Karimova, 2019, 3-bet). [6]

Teatr pedagogikasi nafaqat sahna san’atining o‘qitishdagi estetik ko‘rinishi, balki o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan kuchli didaktik vosita sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Mazkur maqolada teatr pedagogikasining asosiy tamoyillari, teatriy yondashuvlar orqali ta’limiy muhitni jonlantirish imkoniyatlari yoritildi.

Xulosa qilib aytganda, bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va shaxsiy faolligini oshiradi.Pedagogning aktyorga xos qobiliyatlarni egallashi – ya’ni, obraz yaratish, hissiyotlar bilan ishlash, tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish – ta’lim samaradorligini keskin oshiradi. Shuningdek, teatr elementlari yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning predmetga nisbatan qiziqishini oshiradi, guruh bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik amaliyotga teatr vositalarini integratsiyalash – bu zamonaviy ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan, emotsional-intellektual rivojga qaratilgan yondashuvlariga to‘la mos keladi.O‘qituvchilar teatr yondashuvlarini qo‘llash orqali o‘z metodikasini boyitishi, o‘quvchilar bilan ijodiy, interaktiv, hissiy jihatdan boy muhitda ishlashi mumkin. Shunday qilib, teatr pedagogikasi nafaqat madaniy-estetik tarbiya vositasi, balki **ta’limda insonparvarlik, obrazlilik, o‘quvchining ichki dunyosiga kirib borish** kabi tamoyillarni amalda tatbiq etish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv bugungi global o‘zgarishlar sharoitida dolzarb bo‘lib, ta’lim sifati va mazmunini yangilashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020, oktyabr 30). *Ta’lim sohasidagi muammolar,* ularni hal etish va ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.

2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

3. Bakhtin, M. M. (1981). The Dialogic Imagination: Four Essays. University of Texas Press.

4. Korotkova, E. V. (2012). Teatral'naya pedagogika kak sredstvo razvitiya tvorcheskoy aktivnosti detey. Moskva: Prosveshchenie.

5. Rozov, N. V. (2008). Kommunikativnaya kultura v obrazovanii. Sankt-Peterburg: Piter.